

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA OBRAZLI TAFAKKURINI MATN USTIDA ISHLASH ORQALI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Turg‘unova Xumora Xusniddin qizi

O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti magistratura talabasi

Humoraturturgunuva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning obrazli tafakkurini matn ustida ishslash orqali rivojlantirishning usullarilari yoritilgan. Shu bilan birga matn to‘g‘risida, uning turlari haqida fikrlar mavjud. Matn o‘quvchilarning obrazli tafakkurini rivojlantirish uchun qay tarzda yordam berishili aytib o‘tilgan. Tafakkur tushunchalariga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: Matn, tafakkur, mikromatn, makromatn, grafikli matn, PIRLS.

Hozirgi rivojlanayotgan zamonimizda, rivojlanayotgan ta’lim va unga qaratilayotgan e’tibor kundan kunga oshib bormoqda. Shunday ekan ta’limni rivojlantirishda eng avval dastlabki bosqichlardan, ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlamog‘imiz maqsadaga muvofiq bo‘ladi. Chunki ular kelajagimizning poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, biz o‘qituvchilar ta’lim – tarbiyani poydevor qismidan boshlab mustahkamlab borishimiz bilan ta’lim jarayonining rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shtigan bo‘lamiz. Ta’limni rivojlantirishning maqsadi, davlatimizni dunyoning rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘sish hamda texnologiyalarning eng ommabop ko‘rinishlarini yaratishdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini, ya’ni obrazli tafakkurini rivojlantirish so‘nggi yillarda ta’limni rivojlantirish uchun berilagan eng katta vazifalardan biri hisoblanadi. Tafakkurning rivojlanishi kelajakning rivojlanishi

desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Inson tafakkuri qanchalik keng bo'lsa yangi- yangi g'oyalar, rejalar, fikrlar tuza oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilaring obrazli tafakkurini oshirishda eng avval matn bilan birga ishslash boshqichi amalga oshiriladi. Sababi shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil fikr va tushunchalarga ega bo'lmaydi. Shuning uchun dastlabki qadamni mant ustida ishslash bilan boshlashadi.

O'quvchilarga dastlab matn nima ekanligi to'g'risida tushuncha beramiz. "Matn" so'zi rus va ingliz tilida chop etilgan adabiyotlarda "text" lotincha "textum" asosida shakllantirilgan "text" shaklida qo'llanib, "bog'lanish", "birikma", "aloqa", "birikish" kabi ma'nolarni bildiradi. Matn nutqning yozma ko'rinishi hisoblanadi. Bir necha gaplardan tuzilgan gaplar majmuasi matn bo'ladi.

Matn hajmi nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'linadi:

1.Kichik matn (mikromatn)

2.Katta matn (makromatn)

Kichik matnlar o'zaro strukturasida bir kichik tugal fikrni ifoda etadi. Bunday matnlar qisqa mazmunli matnlar hisoblanadi. Unda faqat kichik bir xabar bayon etiladi. Telegramma, ma'lumotnama, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati, hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. Boshlang'ich sinf darslarida ko'proq kichik matnlardan foydalaniladi.

Mikromatnlarga doston, qissa, pyesa, romanlar va ilmiy maqolalarni kiritish mumkin. Mikromatnlar katta hajmli kitoblar hisoblanib, ular qismlardan paragraflardan iborat.

Matn ustida ishslash ishslash orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ular ongi va tafakkurini rivojlantirishga asos bo'ladi. Matnlar orqali

o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish mungkin. O‘quvchilar qanchalik ko‘p matn o‘qisa, shunchalik nuqtasi rivojlanadi. Matnning ma’nosini tushunish orqali dunyoqarashi va fikrlashi o‘zgaradi. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Matnni tasvirlash 2 xil usuli mavjud:

- 1) So‘z bilan tasvirlash;
- 2) Grafik tasvirlash;

So‘z bilan tasvirlash manzarani so‘z yordamida aniq qayta tasvirlash. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko‘rinishini, voqeasini sodir bo‘lgan joylarni tasvirlaydi.

Grafikli tasvirlash ko‘proq uyda bajaradi. Buning uchun o‘quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajrayadilar, uni diqqat bilan o‘qib chiqadilar, mazmunini o‘zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar.

Matn ustida ishslashda matn yuzasidan turli ijodiy va mantiqiy savollar, topshiriqlar tayyorланади. Biz buni Xalqaro baholash dasturlari PIRLS da ham ko‘rishimiz mumkin. PIRLS topshiriqlari ham matn yuzasidan turli mantiqiy va ijodiy topshiriqlar tuziladi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarni tafakkurini rivojlantiradi. Ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini ham rivojlantiradi. Obrazli tafakkur ijodkorlikning bir namunasi bo‘la oladi. Shu o‘rinda tafakkur so‘zining ma’nosiga to‘xtalib o‘tamiz. Tafakkur - narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tafakkurni rivojlantirishning dastlabki qadami matn bilan bog‘lik ekan. Obrazli tafakkurni boyitish uchun matn bilan ko‘proq ishslash foyda beradi. Bu maqola har bir pedagog uchun ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zarur manba bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

- 1.G‘oziyev E. G. “Umumiy psixologiya“ Toshkent 2002-yil.
- 2.Karima Qosimova Ona tili o‘qitish metodikasi
3. <https://uz.wikipedia.org>
- 4.O. Qurbanova, D. Utanboyeva, M. Bayzakova ziyo nashr –matbaa 2024